



## ALLA JANRI SPETSIFIKATSIYASI VA TASNIFLANISHI

*Shamsiya Egamberdiyeva*

Namangan davlat pedagogika instituti  
O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası  
o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ma’lumki har bir asar, xoh u xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lsin, xoh milliy adabiyot namunasi bo‘lsin, janr sifatida tan olinishi uchun ma’lum me’yor va talablarga javob berishi kerak. Allalar xalq og‘zaki ijodining bolalar folklori tarkibiga kirar ekan, avvalo poetik qoliplar, qofiyalanish tizimi, radiflar silsilasi va o‘z tinglovchisiga ega.

**Kalit so‘zlar:** radif, qofiya, vazn, tasniflash, huyalar, janriy ko‘chish

Xalqimiz bolalar folklori namunalarini ming yillar oldin ham tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olgan holda, farzandlari xalq kelajagining bunyodkori ekanligini chuqur his qilgan holda yaratganlar. Bolalar uchun yaratilgan asarlarning tili sodda va ravon, uslubi oddiy, mazmun jihatdan esa tez yodda qoladigan bo‘lishini hisobga olib, xalq sintaktik jihatdan sodda gaplardan foydalanishga harakat qilgan. Lirik asarlarda qofiyalanish tizimida ham to‘q qofiyalarga murojaat qilgan. Sodda radiflardan foydalanilgan.

Alla janrining janriy xususiyatlaridan biri bu undagi aynan “alla “ so‘zining radif sifatida takrorlanishi va bu takror alladagi ma’lum bir ritmni yuzaga keltirishidir. Misra oxirida faqat “alla” so‘zining o‘zigina kelgan baytlar ham bor. Ba’zan esa “Alla” so‘zi takror holda qo‘llanib, so‘zlar o‘rtasida *-ya* , *-yo* , *-ey* , *-hu* , *hey* kabi undovlar qo‘llanishi ham keng tarqalgan.

*Qizil gul xona –xona , alla-ya,  
alla,  
Tishlari dona –dona , alla-ya,  
alla,  
Istasang topilar yor, alla-ya, alla,  
Topilmas ota-ona, alla-ya, alla.*

• Maishiy allalar tarkibiga kiruvchi bu alla namunasida so‘zlar takroridan go‘zal badiiyat yaratish bilan birgalikda, ikki alla so‘zining orasida kelgan –ya tovushi ma’lum bir musiqiylikni yaratishga xizmat qilgan.


*Mening jonim o‘lmasin, alla-ya,  
alla,  
Bog‘da guli so‘nmasin, alla-ya,  
alla,  
Bag‘ri xazon bo‘lmasin, alla-ya,  
alla,  
Umri to‘zon bo‘lmasin alla-ya,  
alla.*

• -Ya, -yo qolipining takrori, asosan, onaning ichki his-tuyg‘ulari eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilganini, bunday allalar uzoq kuylanishini va bola uyquga ketib bo‘lganidan keyin ham, to ona o‘z dardlarini aytib tugatmaguncha davom etishini ko‘rsatadi.

*Heya, Heya, hey Quyosh-ey, alla,  
Mening qo‘zim qo‘ydan yuvosh-  
ey, alla,  
Manim qo‘zimni alla eltgay-ey,  
alla,  
Heya, heya , hey Quyosh-ey, alla,  
Shunga bersin uzoq yosh-ey, alla.*

• Undalmali, onalarning murojaati ifodalangan alla namunalarida –ey takroriga ko‘proq o‘rin beriladi.

Xalq onalarining ijodi bo‘lmish allalar asosan barmoq vaznida, ba‘zan aruzda yaratilgan. Qofiyalanish tartibi a-a-a-a, a-a-b-a, a-b-a-b yoki a-a-b-b tarzida qofiyalanadi.



Taronayi ruboiy kabi a-a-a-a tarzida qofiyalangan allalarning taronayi ruboiydan farqi allalar barmoq vaznida murabba’ shaklida yaratiladi. Alla so‘zi esa an’anaviy tarzda radif bo‘lib keladi.

Ko‘pchilik xalq og‘zaki ijodi namunalarida a-a-b-a tarzida qofiyalanish keng tarqalgan. Ot, murod, qanot so‘zlari o‘zaro qofiyalanib muayyan bir maqsadga xizmat qilgan.

Ikkilik tarzda a-a, b-b qofiyalangan bu kabi allalar nisbatan keng tarqalgan. Alla bevosita ijro vaqtida yaratilgani uchun bunday qofiyalanish tartibi ijrochi uchun qulaylik tug‘dirgan.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida a-b-a-b tarzidagi ya’ni juft misralarning alohida, toq misralarning alohida qofiyalanishi kuylovchining alohida mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi. Holbuki, ko‘pgina xalq dostonlarida ham ayni qofiyalanish tartibini ko‘p uchratamiz.

*Alla desam bor bo‘lgin, alla*

*Menga nomus –or bo‘lgin, alla.*

*Katta bo‘lgan chog‘ingda, alla*

*Xalqqa vafodor bo‘lgin, alla.*

An’anaviy qofiyalanish tartibiga ega bu allada radifning yoyiq radif ekanligi e’tiborimizni tortadi. Onaning farzandi kelajagidan umidi, istaklari va shu bilan birga Vatanga sadoqati o‘z ifodasini topgan. Misralar so‘ngidagi *bo‘lgin, alla* so‘zlari radif bo‘lib takrorlanib kelmoqda.

### **Allalar tinglovchisining jinsiga ko‘ra ham turlarga bo‘linadi.**

1. Qiz bolalarga atalgan allalar
2. O‘g‘il bolalarga atalgan allalar
3. Ham o‘g‘il, ham qiz bolalarga atalgan allalar
4. Egizaklarga atalgan allalar

**1. Qiz bolalarga atalgan allalarda** qizning kelin bo‘lishi, go‘zal bir yor, suluv kelinchak bo‘lishini niyat qiladilar. Ipakdek muloyim, uzum donalari kabi tiniq, gulday xushifor ekanligini ta’kidlaydilar.

*Oq uzum, oppoq uzum, alla,*

*Yoshiga yetdi qizim, alla,*

*Yuzlarga kirsin gul yuzim, alla,*

*Erkalab o‘stiray o‘zim, alla.*

Onalar qizlarining oq uzumga qiyoslashlarida uning donalarining barokoti, sof, samimiyligi va tiniqligini inobatga oladilar. Yuzlarini gulga o‘xshatib, yuz soni va insonning husni bilan bir misraning o‘zida tajnisni yuzaga keltiradilar.

*Qizil gul tizim – tizim, alla,*

*Ikkiga kirsin qizim, alla*

*Qoshlari qunduzgina, alla*

*Muncha shirin bu qizgina, alla.*

Ko‘rinib turganiday, bir yoshli, ikki yoshli qizchalar uchun atalgan alohida - alohida alla namunalari yaratilgan. Qizchalar husni hozirdanoq gulning go‘zalligini lol qoldirsa, qoshlari qunduzdan andoza oladi.

*O‘smalar siqay qoshiga, alla*

*Do‘ppilar tikay boshiga, alla*

*Ipak bo‘lib eshilsin, alla*

*Kelin bo‘lib qo‘shilsin, alla.*

Bu kabi allalarda xalqning milliy urf-odatlarini, ma’naviy qiyofasi, o‘zligiga naqadar sodiqligi nomoyon bo‘ladi.

**2. O‘g‘il bolalar uchun atalgan allalar** esa bolaning kuchli, qudratli, botir, pahlavon kabi sifatlariga e’tibor qaratiladi. Ona o‘g‘lining kelajakda unga suyanch, tayanch, bir qo‘rg‘on bo‘lishini xohlaydi va allalarida o‘z istaklarini bayon qiladi.

*...Qo‘li arslon bilakligim, alla,*

*Botir, qoplon yurakligim, alla.*

*Yaxshi-yomon kunimda, alla.*

*Menga juda kerakligim, alla.*

Ona suti dunyoda poklik, samimiylik, mehr timsoli hisoblanadi. Farzandi xuddi shu sut kabi pokiza, mislsiz husn egasi. Alla kuylayotgan ona uchun dunyodagi eng go‘zal malak – bu farzandidir.

*Sutdan oppoq, guldani islim, alla,*

*Bu dunyoda yo‘qdir misling, alla.*

*O‘g‘illarimning sultoni, alla,*

*Senga tasadduq shu jonim, alla.*

**3.Egizaklarga atalgan alla** namunalarida esa onaning qo‘sh farzandiga tilaklari, yorqin istaklari ufurib turadi:

*Alla, bolam, jonim bolam,*

*Qo‘zichoqlarim, alla*

*Ovunchoqlarim, alla.*

*Qarab turgan qaroqlarim,*

*Yonib turgan chiroqlarim,*

*Alla-yo alla.*

*Biring og‘il, biring qiz*

*Qo‘shaloqlarim, alla*

*Unib-o‘sing olay bahra*

*Chaqaloqlarim, alla.<sup>27</sup>*

Ona qo‘sh farzandini hech bir-biridan ayirmaydi, mehrini teng taqsimlaydi, har biriga alohida umid bog‘laydi. Ikki norasidasini boqib turgan ikki qarog‘iga mengzaydi.

**Binobarin, o‘zbek allalarini ijrochilari va ijodkorlari jinsiga ko‘ra ikki turga bo‘lish mumkin.**

1. **Ayollar allalari.** Bular asosiy ko‘pchilikni tashkil etadi va janr tabiatini tahlil qilishga oid barcha namunalar shu tipga mos.
2. **Erkaklar allalari.** Bular huyalar deb yuritiladi. Bu haqda dastlab G‘ozi Olim Yunusov 1926- yilda “ Maorif va O‘qitg‘uvchi” jurnalining 4- sonida bosilgan “Allalar haqida so‘z “ maqolasida eslatgan edi. Hodi Zarif esa , G‘.O.Yunusovning o‘sha davrlardayoq huyalarning bir necha yaxshi namunalarini yozib olganligi haqida guvohlik beradi.

Huyalar asosan chorvadorlik bilan shug‘ullangan xalqimiz erkaklari tomonidan bolani erkalatish, o‘ynatish va ovutish uchun kuylangan. Surxon bolalar folklorini tadqiq qilgan I. Shoymordanov Surxon bolalar folklorida “Huy-ya, huy-ya” erkalama qo‘shiqlari keng tarqalganini, Ular ko‘rinishidan ovutish, erkalash

<sup>27</sup> O‘zbek folklorshunosligi. Antologiya.-Toshkent,-2017,320-bet

xususiyatiga ega bo‘lsa-da, ammo xuddi onalar allasi kabi chuqur hayotsevarlik, insonparvarlik tuyg‘ulari bilan yo‘g‘rilganini aytib o‘tadi.<sup>28</sup>

*Huyyalar qilay o‘zini-yo, huy-yey, huy-yey, huyya,*

*Huyya qilay qora ko‘zini-yo, huy-yey, huy-yey, huyya,*

*Amudaryoning muzini-yo, huy-yey, huy-yey, huyya,*

*Buvasining qizini-yo, huy-yey, huy-yey, huyya.<sup>29</sup>*

Chindan ham ayollar uy yumushlari bilan band bo‘lgan vaqtlarida chaqaloqni uxlatish erkaklar zimmasiga tushgan. Shunday kezlarda ular bolani tizzalariga olib tebratish marosimiga mos ohangda huya kuylab bolaga uyqu chorlaganlar.<sup>30</sup>

Chortoq tumani Peshqo‘rg‘on qishlog‘ida Navbahor ko‘chasi 3-uyda yashovchi 68 yoshli Mirzayev Mahmudjon ota ham o‘z nabiralarini uxlatish chog‘ida kuylaydigan allalarini biz bilan bo‘lishdilar:

*Alla -yo alla, jonim bolam alla*

*Olloh bergan bozori yo‘q,*

*Bahosi yo‘q,*

*Oliy ne‘matim, alla.*

*Allalaring bor bo‘lsin,*

*Avliyolar yor bo‘lsin,*

*Pirlar madadkor bo‘lsin*

*Alla –yo alla.*

*Osmondagi besh o‘rdak,*

*Beshalasi ham birdak.*

*Mening shirin Anvartoyim*

*Ochilgan qizil guldek, alla*

*Allasidan orom olsin,*

*Orom olib katta bo‘lsin.*

<sup>28</sup> Shoymardonov I. Surxon bolalar folklori.

<sup>29</sup> O‘rayeva D. Semurg‘ qo‘nar davlatmandning boshiga. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. – B.28.

<sup>30</sup> Safarov O. Huyalar –otalar allasi // “Maktabgacha tarbiya” jurnali, 1994, 5-6 sonlar, B 20



*Katta bo‘lib yigit bo‘lsin,*

*Yigit bo‘lib o‘ynab- kulsin, alla.<sup>31</sup>*

Ijrochi farzand kabi aziz ne‘matini bahosi-yu bozori yo‘q ekanligini ta’kidlab, unga avliyo-yu aziz pirlar madadkor bo‘lishini tilaydi. “Osmondagi besh o‘rdak” obrazi otaning besh nabirasi ramzi hisoblanib, ularga mehri birdek ekanligini, lekin yonidagi mana shu nabirasining ismini keltirib uni qizil gulga qiyoslab ketadi. “Allasi” –albatta, bolaning beshigi. Xalq orasida metonimik ko‘chish tarzida beshikka ham “allasi” istiorasi keng qo‘llanadi.

**Janriy ko‘chish masalasi.** Namangan bolalar folklorini o‘rgangan Namanganlik olim **Turg‘unov Sherali Dolixonovich** filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida yozib olingan hududda keng tarqalgan motam qo‘shiqlari ta’sirida yaratilgan allalarni keltirib o‘tadi :

*Otam bor edi egizlar tog‘dek,*

*Onam bor edi oqarlar soydek,*

*Har gaplari sariyog‘dek, bolam, alla-yo, alla*

*Kuydimam o‘limning dastidan,*

*Jonim bolam, alla, erkatoy bolam, alla<sup>32</sup>*

Bunday janriy ko‘chish hodisasi lirik qo‘shiqlar orasida ham kuzatiladi:

*Hoy oq ilon, oppoq ilon, alla-yo alla*

*Oydinda yotganing qani?*

*Sen meni yomon deding, alla-yo*

*Yaxshini topganing qani?*

*Jonim bolam, alla*

*Qo‘zichog‘im, alla<sup>33</sup>*

<sup>31</sup> Chortoq tumani Peshqo‘rg‘on qishlog‘ida Navbahor ko‘chasi 3-uyda yashovchi 68 yoshli Mirzayev Mahmudjon otadan Sh.Egamberdiyeva tomonidan 2023- yilda yozib olingan.

<sup>32</sup> Turg‘unov Sherali Dolixonovich Namangan bolalar folklorining janrlar tarkibi va lokal xususiyatlari nomli ilmiy dissertatsiya. Toshkent,2019. B.117



Ayrim allalarda yor-yorlarda uchraydigan misralarga duch kelish mumkin.

*Shildir-shildir qamishga, alla*

*Tilla baldog‘im tushdi, alla.*

*Sinalmagan bir yorga, alla*

*Ishqim tushdi, alla-ya, alla.*<sup>34</sup>

Bu kabi turli lirik janrlardan allaga ko‘chgan namunalar talaygina. Alla kuylash oniy jarayon, Allani qanday kuylaydi, nimani kuylaydi, buni ona faqat shu lahzadagina hal qiladi. Onasidan kayfiyati yoki shu lahzadagi ruhiy holatidan kelib chiqib o‘zi yod bilgan turli namunalarni allaga evrilishini xohlashi mumkin. Shuning uchun Yoshi ulug‘ onaxonlarning allalari qayg‘uga, dardga to‘la bo‘lsa yosh onalarning allalari orzuga, umidga yo‘g‘rilgan holda kuylanadi. Allalar qay ohangda va qay maqsadda kuylanmasin millat onalarining aksi bo‘lib hizmat qilaveradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Â m il Çelebioğlu, T ü rk Ninnileri Hazînesi, İstanbul 1982
- 2.Safarov O. O‘zbek bolalar folklori . – Toshkent – 2007. 17 – bet
- 3.Safarov O. O`zbek xalq og`zaki ijodi. Darslik. – T.: Musiqachi, 2010.
- 4.Turdimov Sh.Xalq qo‘shiqlarida ramz.-T:Fan,2020.B 134
- 5.Ninni Deyip geçme: Okusun da Öğrensin Ninni”, Buruciye Dergisi, Sivas Yaz 2008, S.2, s. 43-47.
6. Eng sara allalar. Nashrga tayyorlovchi Tilovov.A.–Toshkent.: Adabiyot uchqunlari, 2017
- 7.[www.okumay](http://www.okumay.isev.com) ISEV.com.TÜRK NİNNİLERİNDEN SEÇMELER.isev.org.tr
- 8.Egamberdiyeva Sh.E. O‘zbek va turk allalarida ota obrazining qiyosiy talqinlari.//Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 561-564.

<sup>33</sup> Turg‘unov Sherali Dolixonovich Namangan bolalar folklorining janrlar tarkibi va lokal xususiyatlari nomli ilmiy dissertatsiya. Toshkent,2019. B.117

<sup>34</sup> Shu yerda



9.Egamberdiyeva Sh.E. Umumturkiy tillar allalarida alliteratsiya va assonans.

//TADQIQOTLAR. – 2024. – T. 32. – №. 2. – C. 46-50.

<http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/2184>